

2021– yilning yanvar–dekabr oylarida Buxoro viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021– yilning yanvar–dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 29 150,0 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 28 793,6 mlrd. soʻmni (103,4 %), oʻrmon xoʻjaligi – 153,2 mlrd. soʻmni (101,1 %), baliqchilik xoʻjaligi – 160,3 mlrd. soʻmni (160,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Buxoro viloyatining ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.

**01****Dehqonchilik
va chorvachilik,
ovchilik va ushbu
sohalarda
koʻrsatilgan
xizmatlar****28 793,6 mlrd.soʻm****02****Oʻrmon
xoʻjaligi****153,2 mlrd.soʻm****03****Baliqchilik
xoʻjaligi****203,2 mlrd.soʻm**



Buxoro viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining oʻsish surʻati, % da



2021- yilning yanvar – dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 103,4 % ni, oʻrmon xoʻjaligi – 101,1 % ni, baliqchilik xoʻjaligi – 160,3 % ni tashkil qildi.

Ma'lumot uchun:

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar- dekabr oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2020 - yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.

✓ Pilla	— 136,1 %
✓ Qorako'l teri	— 109,3 %
✓ Go'sht (tirik vaznda)	— 104,3 %
✓ Olingan tuxum	— 106,8 %
✓ Oziqbop poliz ekinlari	— 103,0 %
✓ Paxta	— 116,7 %
✓ Jami don	— 103,0 %
✓ Ovlangan baliq	— 161,3 %



Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi



Dehqonchilik
va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda
ko'rsatilgan xizmatlar

98,8 %

O'rmon xo'jaligi

0,5 %


Baliqchilik xo'jaligi

0,7 %

2021- yilning yanvar – dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 98,8 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning (2020- yilning yanvar – dekabr oylarida 99,1 %), 0,5 % i - o'rmon xo'jaligi (0,5 %), 0,7 % i baliqchilik xo'jaligi (0,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.



Hududlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2021– yilning yanvar– dekabr oylarida, tuman va shaharlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (3 681,0 mlrd. soʻm) va Gʻijduvon (3 437,0 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahri (28,0 mlrd. soʻm), Buxoro shahri (343,0 mlrd. soʻm) va Qorovulbozor tumani (795,0 mlrd. soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

Viloyat koʻrsatkichidan (103,7 %) yuqori oʻsish surʼatlari Shofirkon (106,4 %), Jondor (104,9 %), Kogon shahar (104,8 %), Romitan (104,7 %) Gʻijduvon (103,9 %) Olot (103,8 %) va Qorakoʻl (103,7 %) tumanlarida kuzatildi. Buxoro shahrida (100,4 %), Kogon (101,7 %), Qorovulbozor (101,9 %), Buxoro (102,1 %), Vobkent (102,7 %) va Peshku (103,4 %) tumanlarida esa aksincha oʻsish surʼatlari pastligi kuzatildi.



Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021– yilning yanvar– dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 28 358,3 mlrd. so'mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 14 000,4 mlrd. so'mni (101,7 %), chorvachilik mahsulotlari – 14 453,9 mlrd. so'mni (103,1 %) tashkil qildi.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, (% da)



49,4 %

Dehqonchilik mahsulotlari




50,6 %

Chorvachilik mahsulotlari



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, (% da)



Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar

01 ▶ Qorovulbozor

02 ▶ Buxoro sh.

03 ▶ Vobkent

Kogon sh. ◀ 01

Kogon ◀ 02

G'ijduvon ◀ 03



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



67,7 %

**Dehqon
(shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari**



28,4 %

**Fermer
xo'jaliklari**



3,9 %

**Qishloq xo'jaligi
faoliyatini amalga
oshiruvchi tashkilotlar**

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 67,7 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 28,4 % i – fermer xo'jaliklariga, 3,9 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Ma'lumot uchun:

Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:

- ✓ *Go'sht (tirik vaznda)* — 93,0 %
- ✓ *Sog'ib olingan sut* — 93,0 %
- ✓ *Kartoshka* — 88,2 %
- ✓ *Sabzavotlar* — 68,8 %



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, (% da)



2021-yilning yanvar– dekabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida (60,2 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Kogon shahrida (89,3 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Buxoro shahrida (11,4 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Kogon tumanida (18,4 %), dehqon

(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor tumanida (35,6%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Qorako'l tumanida (1,3%) qayd etildi.




Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi

Dehqonchilik mahsulotlari



Chorvachilik mahsulotlari



-  Fermer xo'jaliklari
-  Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
-  Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




Dehqonchilik


2021– yilning yanvar – dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 14 000,4 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 49,4 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming. t.



Oʻsish surʻati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**



Fermer xoʻjaliklari

**Dehqon (shaxsiy
yordamchi) xoʻjaliklari**

**Qishloq xoʻjaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2021– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 562,7 ming. t. donli ekinlar (2020– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 3,0 % ga koʻp) yetishtirildi. Jami don yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlili, jami don yetishtirish umumiy hajmidan 73,8 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatdi.



Hududlar bo'yicha donli ekinlar yetishtirish

hajmi, ming tonna

Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi



Yuqori ulushga ega hududlar

Jondor tumani	11,6 %
Romitan tumani	11,2 %
Qorako'l tumani	10,2 %
Shofirkon tumani	9,7 %


Past ulushga ega hududlar

Kogon shahri	0,01 %
Buxoro shahri	0,2 %
Kogon tumani	5,3 %
Qorovulbozor tumani	7,3 %




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 787,7 ming t. sabzavotlar (2020– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 2,5 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 68,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



**Hududlar bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish**

hajmi, ming tonna


**Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi**




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Jondor tumani 13,9 %	Kogon shahri 0,01 %
Buxoro tumani 12,5 %	Qorovulbozor tumani 2,8 %
G'ijduvon tumani 10,9 %	Kogon tumani 3,9 %
Qorako'l tumani 10,6 %	Buxoro shahri 3,5 %

Kartoshka


Hajmi, ming. t.



O'sish sur'ati




**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

**Dehqon (shaxsiy
yordamchi) xo'jaliklari**


**Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 227,3 ming. t. kartoshka (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 2,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 88,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



**Hududlar bo'yicha
kartoshka yetishtirish**



Yuqori ulushga ega hududlar

Buxoro tumani **14,7 %**

Jondor tumani **13,9 %**

Peshku tumani **12,5 %**

G'ijduvon tumani **10,2 %**

Past ulushga ega hududlar

Kogon shahri **0,4 %**

Buxoro shahri **0,7 %**


Qorovulbozor tumani **1,5 %**

Qorako'l tumani **5,4 %**




Poliz


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 181,3 ming t. poliz (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 3,0 % ga ko'p) ekinlari yetishtirildi. Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmidan 60,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



Hududlar bo'yicha poliz ekinlari yetishtirish

hajmi, ming tonna


Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Jondor tumani 15,0 %	Buxoro shahri 0,5 %
Peshku tumani 14,9 %	Kogon tumani 2,3 %
Qorovulbozor tumani 13,0 %	Shofirkon tumani 4,8 %
Buxoro tumani 9,7 %	Vobkent tumani 5,0 %

Meva va rezavorlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 262,1 ming t. meva va rezavorlar (2020– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 13,7 % ga kam) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 53,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



**Hududlar bo'yicha
meva va rezavorlar
yetishtirish**

hajmi, ming tonna

**Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi**



Yuqori ulushga ega hududlar

Vobkent tumani **14,8 %**

Jondor tumani **14,5 %**

G'ijduvon tumani **12,9 %**

Buxoro tumani **12,8 %**

Past ulushga ega hududlar

Buxoro shahri **0,9 %**




Qorovulbozor tumani **1,5 %**

Kogon tumani **2,7 %**

Olot tumani **4,1 %**




Uzum

Hajmi, ming t.**O'sish sur'ati****Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi****Fermer xo'jaliklari****Dehqon (shaxsiy
yordamchi) xo'jaliklari****Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2021– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 205,5 ming t. uzum (2020– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 0,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 59,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



Hududlar bo'yicha uzum yetishtirish




Yuqori ulushga ega hududlar		Past ulushga ega hududlar	
Buxoro tumani	19,5 %	Buxoro shahri	0,9 %
Jondor tumani	14,3 %	Qorovulbozor tumani	0,7 %
Shofirkon tumani	11,9 %	Kogon tumani	2,0 %
G'ijduvon tumani	11,6 %	Olot tumani	3,6 %



Chorvachilik

2021– yilning yanvar – dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 14 357,9 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 50,6 % ni tashkil etdi.




Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.


2021– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 274,1 ming t. go'sht (2020– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 4,3 % ga ko'p), 1 020,4 ming t. sut (1,8 % ga ko'p), 501,7 mln. dona tuxum (6,8 % ga ko'p), 4,0 ming t. jun (3,2 % ga ko'p), 547,5 ming dona qorako'l teri (9,3 % ga ko'p) yetishtirildi va 11 ,4 ming t. baliq (61,3 % ga ko'p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2021- yilning yanvar - dekabr oylarida go'sht yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga asosan, go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 254,9 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 93,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2020- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2021- yilda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 3,5 % va fermer xo'jaliklarda 28,4 % o'sish kuzatildi.



Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish



Yuqori ulushga ega hududlar		Past ulushga ega hududlar	
G'ijduvon tumani	12,8 %	Kogon shahri	0,2 %
Jondor tumani	11,4 %	Buxoro shahri	1,0 %
Qorako'l tumani	10,7 %	Qorovulbozor tumani	2,3 %
Buxoro tumani	10,7 %	Olot tumani	6,8 %




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Xo'jalik toifalari orasida sut yetishtirishning eng katta hajmi 948,6 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 92,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

2021-yilning yanvar- dekabr oylari yakunlari bo'yicha eng kam hajm 5,2 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2020-yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 16,2 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 47,8 % o'sish kuzatildi.



Hududlar bo'yicha sut yetishtirish




Yuqori ulushga ega hududlar		Past ulushga ega hududlar	
G'ijduvon tumani	12,5 %	Kogon shahri	0,1 %
Shofirkon tumani	11,2 %	Buxoro shahri	0,5 %
Buxoro tumani	10,8 %	Qorovulbozor tumani	1,1 %
Jondor tumani	10,7 %	Kogon tumani	5,2 %




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Boshqa toifadagi xo'jaliklarga nisbatan taqqoslanganda, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 280,1 mln.dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 55,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

2021-yilning yanvar- dekabr oylarida, yetishtirishning eng kam hajmi 85,1 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 17,0 % i fermer xo'jaliklarida kuzatildi.


2020-yilga nisbatan, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 0,5 % va fermer xo'jaliklarda 16,4 % o'sish kuzatildi.



Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish

hajmi, mln. dona

Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Jondor tumani 20,7 %	Kogon shahri 0,1 %
G'ijduvon tumani 15,4 %	Qorovulbozor shahri 1,9 %
Kogon tumani 12,7 %	Buxoro shahri 3,3 %
Qorako'l tumani 9,6 %	Olot tumani 4,6 %




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ovlangan baliqning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Baliq ovlash ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilish jarayonida, ovlangan baliqlar hajmining asosiy qismi 9 326 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 81,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2021- yilning yanvar - dekabr oylari natijalari bo'yicha baliq ovlashning eng kam hajmi 904,0 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 7,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida kuzatildi.

2020- yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 13,9 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 0,8 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 81,5 % o'sish kuzatildi.



Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar



Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Shofirkon tumani 37,5 %	Kogon tumani 1,1 %
Buxoro tumani 16,7 %	Buxoro shahar 1,2 %
G'ijduvon tumani 10,4 %	Qorovulbozor tumani 1,9 %
Olot tumani 8,3 %	Romitan tumani 2,3 %





Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh




2022– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,1% i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,7% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,2% i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 14,7% i fermer xo'jaliklariga, 78,9% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,4% i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiy sonidan 40,3% i fermer xo'jaliklariga, 42,1% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 17,6% i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 27,1% i fermer xo'jaliklariga, 48,6% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 24,3% i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2022–yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 284,9 mingtaga yetdi.


2021–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 37,4 mingtaga (3,0 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022–yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Hududlar bo'yicha
yirik shoxli qoramollarning
umumiy bosh soni, ming bosh**



**Viloyat bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soniga
nisbatan hududlarning ulushi**




2022– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 421,9 mingtaga yetdi.


2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 14,4 mingtaga (3,5 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 91,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



Hududlar bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



ViLOYAT bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi




2022– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 303,3 mingtaga yetdi.


2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 63,5 mingtaga (2,8 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘shish sur‘ati



Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy
yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 78,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



**Hududlar bo'yicha
qo'y va echkilarning umumiy
bosh soni, ming bosh**



Viloyat bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi




2022–yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 6 771 taga yetdi.


2021–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 726 taga (12,0 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sish sur‘ati



Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022–yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 42,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.



Hududlar bo'yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



ViLOYAT bo'yicha otlarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi




2022– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 923,5 mingtaga yetdi.


2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 142,5 mingtaga (2,5 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 48,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



Hududlar bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Viloyat bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi



• 65- 223-44-45
• 65- 220-83-07